



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezlilarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

kamchiliklari – tezkor, aniqlik darajasi yuqori va raqamlashtirilgan boshqaruv imkoniyatining yo‘qligi hisoblanadi.

Xulosa. Transport vositalarining harakatlanishini monitoring qilishning an’anaviy tizimlari hali ham amaliyotda muhim o‘rin egallab turibdi. Ammo ularning samaradorligini oshirish uchun:

- texnologiyalarni yangilash;
- elektron va raqamli tizimlar bilan integratsiyalash;
- inson omiliga qaramlikni kamaytirish;
- avtomatlashtirilgan va intellektual transport tizimlarini bosqichma-bosqich

joriy etish lozim.

Kelajakda transport monitoringi samaradorligi an’anaviy va raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2021.
2. Abdurahmonov M. Transport logistikasida monitoring tizimlari. – Toshkent: Fan, 2020.
3. European Transport Safety Council. Monitoring road safety performance indicators. Brussels, 2019.
4. Kuchеров A. Transport control and monitoring systems. Moscow: Infra-M, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi IIV YHXBB rasmiy ma’lumotlari (www.iiv.uz).
6. Адиллов О. К., Кулмурадов Д. И., Каршибаев Ш. Э., Нуруллаев У. А. Проблемы управления автоперевозками и методы их решения. «Молодой учёный». № 2 (82). Январь, 2015 г.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING NAZARIY HAMDA AMALIY JIHATLARI

PhD, dots. Mallayeva E’tibor

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika va psixologiyaning nazariy hamda amaliy jihatlari, ularning o‘zaro bog‘liqligi, ta’lim jarayonida psixologik yondashuvlarning qo‘llanilishi va innovatsion metodlar bilan uyg‘unligi tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik va psixologik tamoyillarning samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogika, psixologiya, ta’lim va tarbiya, Avesto, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek Everest cho‘qqilari motivatsiya, Elektron ta’lim, STEM-ta’lim.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, madaniy-ma’naviy va ilmiy hayotimizda ko‘plab yangiliklar, umumbashariy

jarayonlar bilan bog'liq ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Eng muhimi, inson va fuqaroning fikrlash va dunyoqarashi o'zgarmoqda, siyosiy va ijtimoiy ongi, uning umumiy saviyasi to'xtovsiz o'sib bormoqda. Yangi avlod, yangi tafakkur sohiblari dunyoga kelmoqda. «Avesto» ta'limoti, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy (810—970), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824—892) kabi hadis ilmining ulug'lari ta'lim-tarbiya jarayoniga ulkan hissa qo'shib, pedagogikaning shakllanishiga zamin yaratdilar. Ularning pedagogik qarashlari tarixning zarhal sahifalaridan munosib o'rin egalladi. Ilk o'rta asrlarda Abu Nasr Forobiy (789—950), Abu Ali ibn Sino (980—1037), Abu Rayhon Beruniy (937—1051) kabi allomalar ta'lim-tarbiyaga oid dunyoviy fikrlari bilan dovrug' qozondilar. O'zbek adabiy tilining asoschisi, buyuk davlat arbobi Mir Alisher Navoiy o'zining tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan noyob asarlari, ilmiy tafakkur va falakiyot ilmi sohasida yetuk dunyoqarash sohibi Mirzo Ulug'bek m a'rifiy qarashlari, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa adiblar o'zlarining o'lmas ijodlari bilan pedagogika fani taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdilar. Bugungi kunga qadar pedagogika sohasida yangi-yangi ta'limotlar, g'oyalar kashf qilindi, yuzlab risolalar, asarlar yaratildi, bu sohaga oid eng yuqori cho'qqi zabt etildi, ammo tarbiya jarayonidagi insonni chuqur o'yga cho'mdiradigan muammolar hanuzgacha o'z yechimini to'laqonli topganicha yo'q.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida o'qitish jarayoniga psixologik tamoyillarni joriy etish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvdan foydalanish va o'quvchilarning emotsional-intellektual rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish talab etilmoqda. O'quvchilar faqatgina nazariy bilimlarni emas, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, kreativlik va jamoa bilan ishlash kabi ko'nikmalarni ham egallashi kerak. Buning uchun zamonaviy pedagogika innovatsion metodlarni o'z ichiga olgan holda, psixologik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilishi lozim.

Ushbu maqolada pedagogika va psixologiyaning nazariy hamda amaliy jihatlari, ularning o'zaro bog'liqligi, ta'lim jarayonida psixologik yondashuvlarning qo'llanilishi va innovatsion metodlar bilan uyg'unligi tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik va psixologik tamoyillarning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Bugungi kunga qadar pedagogika sohasida yangi-yangi ta'limotlar, g'oyalar kashf qilindi, yuzlab risolalar, asarlar yaratildi, bu sohaga oid "Everest cho'qqilari" zabt etildi, ammo tarbiya jarayonidagi insonni chuqur o'yga cho'mdiradigan muammolar hanuzgacha o'z yechimini to'laqonli topganicha yo'q. Pedagogikaning metodologik asosi yosh avlodni tarbiyalash an'alarini, jamiyatning taraqqiyot bosqichlaridagi o'qitish va kamol toptirish tizimlarini, ularning qonun-qoidalarini, qomusiy mutafakkirlar, ma'rifatparvar adiblar va pedagoglarning ta'lim-tarbiya, ma'rifatga doir g'oyalarini va ularning rivijlanishini mukammal o'rganadigan fandir. Zamonaviy Pedagogika ijtimoiy hayot jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan shxslami bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan, yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, komil inson etib tarbiyalashdek muhim masalalarni hal qilishi lozim. Pedagogika insonshunoslik fani bo'lib, jamiyat va shaxs munosabatlarini tizimlashtiradigan tarbiya va taiim muammolarini o'rganadi. Unda hozirgi zamon fani va metodologiyasining quyidagi umumiy masalalari yoritiladi: - fan tarixi va taraqqiygti; - fan haqidagi asosiy

konsepsiyalar; - hozirgi zamon fanidagi asosiy dolzarb muammolar. Pedagogikaning rivojiga IX-XVI asrlar (Sharq uygʻonish davri)da yashab ijod etgan Al-Buxoriy, At-Termiziy, Abu Nasir Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshgʻariy, Ahmad Yassaviy, Bohouddin Naqshbandiy, Mirzo Ulugʻbek, Mir-Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk daholar, XIX asming oxiri XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan Abdurauf Fitrat, Mahmudxoʻja Behbudiy, Munawarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Saidahmad Siddiqiy, Ovro p.i davlatlarining buyuk mutafakkir va pedagog olimlaridan Yan Amos Komenskiy, Jan Jak Russo, I.G. Pestolotsi, Adolʻf Disterveg. K D www.ziyouz.com kutubxonasi Ushinskiy, A.S. Makarenko, J. Lokk, Jon Dyui, Edvard Torndayk, S.T. Shaskiy, B.Blumlar ulkan hissa qoʻshdilar.

Zamonaviy psixologiyaning taʼlim jarayonidagi oʻrni: Pedagogikaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi psixologiya bilan chambarchas bogʻliq. Zamonaviy taʼlim tizimida psixologik tamoyillardan foydalanish oʻquvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish va samarali muloqot oʻrnatishda muhim rol oʻynaydi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ahamiyati: Bugungi taʼlim jarayonida innovatsion texnologiyalar muhim rol oʻynamoqda. Raqamli texnologiyalar, sunʼiy intellekt asosidagi taʼlim tizimlari va interfaol platformalar oʻquv jarayonini samarali tashkil etishga yordam bermoqda.

Innovatsion taʼlim metodlari quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

Elektron taʼlim (E-learning) – onlayn platformalar orqali taʼlim olish;

Gamifikatsiya (oʻyinlashtirish) – taʼlim jarayonini qiziqarli va motivatsion qilish;

STEM-taʼlim – fan, texnologiya, muhandislik va matematika integratsiyasiga asoslangan yondashuv;

Problemaga yoʻnaltirilgan taʼlim – real hayotdagi muammolarni tahlil qilish va ularni hal qilishga yoʻnaltirish.

Oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi samarali muloqot: Samarali taʼlim jarayoni oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi muloqotning sifatiga bogʻliq. Oʻqituvchining pedagogik va psixologik koʻnikmalari oʻquvchilarning bilim olish jarayoniga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Pedagog va psixologlarning hamkorligi: Zamonaviy taʼlim tizimida pedagoglar va psixologlarning hamkorligi taʼlim samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Taʼlim jarayonida psixologik yondashuvlardan samarali foydalanish oʻquvchilarning shaxsiy rivojlanishini qoʻllab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Pedagog va psixolog hamkorligining asosiy jihatlari:

Oʻquvchilarning psixologik holatini baholash va kerakli tavsiyalar berish;

Stress va emotsional qiyinchiliklarni yengishga koʻmaklashish;

Oʻquvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish;

Ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda yordam berish. Zamonaviy pedagogika va psixologiya taʼlim jarayonining ajralmas qismi boʻlib, oʻquvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar va psixologik tamoyillarni uygʻunlashtirish orqali taʼlim sifatini

oshirish, o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni zamonaviy jamiyatga tayyorlash mumkin. O'qituvchilar va psixologlarning hamkorligi esa bu jarayonda muhim o'rin tutadi.

Pedagogik psixologiya shaxs rivojlanishining psixologik mexanizmlarini o'rganish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ta'lim va tarbiyaning ilmiy asoslangan psixologik yondashuvini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish orqali shaxsning har tomonlama va barkamol shakllanishiga erishish mumkin.

Zamonaviy pedagogik psixologiya o'quvchilarning tafakkurini, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini va shaxsiy qadr-qimmatini rivojlantirishga alohida urg'u beradi. Ta'lim va tarbiya jarayonida psixologik bilimlardan samarali foydalanish — shaxsni jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuvga tayyorlashning muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Toxtaxodjayeve (tahriri ostida). Pedagogika. T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2001.
3. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. T.: O'qituvchi, 1996.
4. Hoshimov K., Ochil S. O'zbek pedagogikasi antologiyasi, I-jild. T.: O'qituvchi, 2010.
5. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2008.
6. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T., 2008.
7. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
8. Mavlonova R. va boshqalar. Ijtimoiy pedagogika. T.: Istiqlol, 2009.
9. Karimova V.M. Psixologiya. T.: Sharq, 2002.
10. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya 1-2 tom. Toshkent, 2002.
11. Ivanov P.I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.
12. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. T.: Fan va texnologiyalar, 2010.

INGLIZ TILI MASHG'ULOTLARIDA MOBIL ILOVALARNI QO'LLASHNING XALQARO VA MILLIY TAJRIBALARI

Mustafoyev Behzod Farxodovich

Jizzax politexnika instituti

dilshodkulmuradov@gmail.com

Kirish. Globalizatsiya va raqamli texnologiyalar davrida chet tillarni, xususan ingliz tilini o'qitishda innovatsion yondashuvlar muhim o'rin tutmoqda. Mobil ilovalar